

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKAI JINOYAT QONUNCHILIGIDA
VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI**

Sulaymonov Adham Dobilovich

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi

M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning

Huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Husanboyeva Gulyora Homidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi

akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlar javobgarligining huquqiy asoslari, ularga nisbatdan jazo tayinlanishning o'ziga xos tartibi hamda jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tizimli ravishda tahlil qiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatdan jazo tayinlashning insonparvarlik tamoyillari, xususan, so'ngi kunlardagi yangi o'zgartirishlarga muvofiq sudlamanganlik maqomini belgilash hamda jazo muddatlarini qisqartirish kabi dolzarb huquqiy normalar ko'rib chiqishdan iborat. Xususan, maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik dinamikasi, profilaktik chora-tadbirlar va tarbiya koloniyalarining faoliyati bilan bog'liq statistik ma'lumotlar hamda o'smirlarni hushqabzarlik sodir etishga undovchi omillarni huquqiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinoiy javobgarlik, liberallashtirish, sudlanmaganlik, jinoyatchilik statistikasi, tarbiya koloniyasi, profilaktika.

ОСОБЕННОСТИ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Сулаймонов Адхам Добилович

*Преподаватель кафедры юридических наук
академического лицея имени М.С.Восиковой
при Ташкентском государственном юридическом университете*

Хусанбоева Гулёра Хомиджон кизи

*Учащаяся академического лицея имени М.С. Восиковой
при Ташкентском государственном юридическом университете*

Аннотация. В данной статье системно анализируются правовые основы ответственности несовершеннолетних в уголовном законодательстве Республики Узбекистан, особенности назначения наказания в отношении них, а также обстоятельства, смягчающие наказание. Кроме того, рассматриваются гуманистические принципы назначения наказания несовершеннолетним, в частности, актуальные правовые нормы, касающиеся определения статуса несудимости и сокращения сроков наказания в соответствии с последними изменениями законодательства. В частности, в статье анализируются динамика преступности среди несовершеннолетних, статистические данные, связанные с профилактическими мерами и деятельностью воспитательных колоний, а также правовые аспекты факторов, побуждающих подростков к совершению правонарушений.

Ключевые слова: несовершеннолетние, уголовная ответственность, либерализация, несудимость, статистика преступности, воспитательная колония, профилактика.

**FEATURES OF JUVENILE RESPONSIBILITY IN THE CRIMINAL
LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Sulaymonov Adham Dobilovich

*Teacher of the Department of Legal Sciences
at the Academic Lyceum named after M.S.Vosikova
under the Tashkent State University of Law*

Husanboyeva Gulyora Homidjon qizi

*Student of the M.S. Vosiqova Academic Lyceum
under Tashkent State University of Law*

Abstract. *This article systematically analyzes the legal foundations of juvenile responsibility in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan, the specific procedure for imposing punishment on minors, and the circumstances that mitigate punishment. In addition, the article examines the humanitarian principles of sentencing for juveniles, particularly the current legal norms related to determining the status of having no criminal record and reducing the terms of punishment in accordance with recent legislative amendments. In particular, the article reviews the dynamics of juvenile delinquency, statistical data related to preventive measures and the activities of juvenile correctional colonies, as well as the legal aspects of factors that encourage adolescents to commit offenses.*

Keywords: *minors, criminal liability, liberalization, absence of criminal record, crime statistics, juvenile correctional colony, prevention.*

KIRISH. Voyaga yetmaganlar jamiyatning eng muhim ijtimoiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat huquqiy subyekt sifatida, balki jamiyatning kelajagi, millat taraqqiyotining davomchilari sifatida alohida e'tibor talab etadigan ijtimoiy guruhdir. Shu sababli voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishini

ta'minlash hamda turli huquqbuzarlik va jinoyatlardan himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar shaxs sifatida hali to'liq shakllanib ulgurmaganligi sababli ular ijtimoiy muhit ta'siriga tez beriluvchan bo'ladi. Shu jihatdan ularning har qanday xatti-harakatlari ortida ko'pincha psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillar mujassam bo'ladi. Ayrim hollarda o'smirlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlar ularning shaxsiy niyatidan ko'ra ko'proq atrof-muhit, oiladagi tarbiya, tengdoshlar ta'siri yoki kattalar tomonidan noto'g'ri yo'naltirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bois voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni o'rganishda faqat huquqiy yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarni ham kompleks tarzda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

ASOSIY QISM. Bugungi kunda dunyo miqyosida voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik global ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar ko'pincha mulkiy jinoyatlar, bezorilik, giyohvand moddalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar hamda kiberjinoyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Internet va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi esa voyaga yetmaganlarning yangi turdagi jinoyatlarga jalb qilinish xavfini yanada oshirmoqda. Ushbu tendensiya ayrim hollarda O'zbekiston jamiyatida ham kuzatilmoqda [2].

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi munosabatlar bir qator milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, **BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun**, shuningdek **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining** voyaga yetmaganlar javobgarligiga bag'ishlangan normalari ushbu sohaning huquqiy asosini tashkil etadi [3]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar voyaga yetmaganlarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va

qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ta'lim olish, erkin rivojlanish hamda ijtimoiy muhofazaga bo'lgan huquqlarini kafolatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu hujjatlar voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish hamda ularning manfaatlarini ustuvor tamoyil sifatida ta'minlashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, qonunchilik tizimida voyaga yetmaganlarga nisbatan insonparvarlik tamoyili muhim o'rin egallaydi. Mazkur tamoyilga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llashda uning yoshi, psixologik holati, ijtimoiy muhit ta'siri hamda tarbiyaviy omillar alohida e'tiborga olinadi. Shu sababli jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazodan ko'ra ularni tarbiyalash, tuzatish hamda jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan choralar ustuvor hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriridagi **78-moddasiga** muvofiq, davlat bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, uning jismoniy, aqliy hamda ma'naviy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, davlat va jamiyat bolalarda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish hamda ularning ijtimoiy hayotga faol integratsiyasini ta'minlashga ko'maklashishi lozim. Bu esa voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklardan himoya qilish hamda ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish masalalarining davlat siyosatidagi ustuvor ahamiyatini ko'rsatadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, **18 yoshga to'lmagan shaxslar voyaga yetmaganlar** deb e'tirof etiladi. Jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik umumiy qoida tariqasida **16 yoshdan**, ayrim og'ir turdagi jinoyatlar uchun esa **14 yoshdan** boshlanishi belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy qismi **16–17 yoshli o'smirlar** hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa aynan o'smirlarlik davrida shaxsning psixologik barqarorligi yetarli darajada shakllanmaganligi hamda tashqi ta'sirlarga

sezuvchanligi yuqori bo'lishi bilan izohlanadi [4]. **Ya'ni**, o'smirlilik davri inson hayotidagi eng murakkab psixologik bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari faol shakllanadi. Aynan shu jarayonda o'smirlar ko'pincha mustaqil qaror qabul qilishga intiladi, biroq ularning hayotiy tajribasi yetarli darajada shakllanmaganligi sababli ayrim hollarda noto'g'ri xatti-harakatlarga yo'l qo'yishi mumkin.

Shu bois voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning katta qismi aynan 16–17 yosh oralig'iga to'g'ri keladi. Bu davrda o'smirlar tengdoshlar ta'siriga tez berilishi, hissiy jihatdan beqaror bo'lishi hamda ayrim vaziyatlarda o'z harakatlarining huquqiy oqibatlarini to'liq anglab yetmasligi mumkin. Natijada ular turli salbiy muhit ta'sirida huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishga moyil bo'lib qoladi. Shu sababli voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda nafaqat jinoiy javobgarlik choralari qo'llash, balki ularning huquqiy ongini shakllantirish, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish hamda o'smirlarning ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning katta qismini **mulkka qarshi jinoyatlar**, xususan **o'g'rilik** tashkil etadi. Bundan tashqari, **bezorilik**, **tengdoshlar o'rtasidagi zo'ravonlik**, shuningdek so'nggi yillarda **internet orqali sodir etilayotgan kiberjinoyatlar** hamda **taqiqlangan moddalarni tarqatishda vositachilik qilish** kabi holatlar ham kuzatilmoqda. Bu esa zamonaviy jamiyatda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yangi shakllari paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning mazmuni va shakllari jamiyatdagi ijtimoiy hamda texnologik o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda rivojlanib bormoqda. An'anaviy tarzda uchrab kelayotgan mulkka qarshi jinoyatlar, xususan o'g'rilik va bezorilik holatlari bilan bir qatorda, zamonaviy axborot texnologiyalarining keng tarqalishi natijasida kiberjinoyatlar ham o'smirlar orasida uchray boshladi. Bu esa voyaga yetmaganlarning nafaqat real ijtimoiy muhitda, balki virtual makonda ham turli huquqbuzarlik va jinoyat sodir

etish xavfi mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim hollarda o'smirlar internet tarmoqlaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanish, firibgarlik sxemalarida ishtirok etish yoki taqiqlangan moddalarni tarqatishda vositachilik qilish kabi noqonuniy faoliyatlarga jalb etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **86-moddasiga** muvofiq, voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda sud jazo tayinlashning umumiy asoslari bilan bir qatorda voyaga yetmaganning rivojlanish darajasi, turmush sharoiti, tarbiyasi, sog'lig'i hamda jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan omillarni ham hisobga oladi. Bundan tashqari, jinoyat sodir etilishida katta yoshdagilarning ta'siri yoki boshqa tashqi omillar mavjud bo'lgan taqdirda ham bu holatlar alohida e'tiborga olinadi [5]. **Ya'ni** voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash jarayonida sud faqat sodir etilgan jinoyatning og'irligi yoki ijtimoiy xavflilik darajasini baholash bilan cheklanib qolmaydi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganning shaxsiy xususiyatlari, uning psixologik rivojlanish darajasi, oilaviy va ijtimoiy muhiti, tarbiya sharoiti hamda jinoyat sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlar ham kompleks ravishda tahlil qilinadi.

Bunday yondashuv voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llashda insonparvarlik va adolat tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki ayrim hollarda o'smir tomonidan sodir etilgan jinoyat uning ongli ravishda qabul qilgan qaroridan ko'ra ko'proq tashqi ta'sirlar, jumladan katta yoshdagilarning salbiy ta'siri, tengdoshlar bosimi yoki noqulay ijtimoiy muhit natijasi bo'lishi mumkin.

Shuningdek, jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan **insonparvarlik tamoyili** alohida o'rin tutadi. Xususan, Jinoyat kodeksining **72-moddasiga** muvofiq, sud ayrim hollarda jinoyat sodir etgan shaxsni jazoni o'tamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelsa, unga nisbatan **shartli hukm** qo'llashi mumkin. Bu esa voyaga yetmaganlarga nisbatan jazolashdan ko'ra ularni tuzatish va ijtimoiy hayotga qayta moslashtirishga qaratilgan yondashuv ustuvor ekanligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni yanada liberallashtirishga qaratilgan muhim qonunchilik islohotlari amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgartirishlarga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan ayrim turdagi jinoyatlar uchun jazo muddatlari qisqartirildi hamda ayrim holatlarda jazoni o'tab bo'lgan shaxsni sudlanmagan deb hisoblash tartibi joriy etildi [6]. Mazkur qonunchilik islohotlari voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llashda insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini yanada kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun jazolashdan ko'ra, uni tarbiyalash, tuzatish hamda jamiyatga qayta moslashtirishga imkon yaratishdan iboratdir. Bunday yondashuv voyaga yetmagan shaxsning kelajakdagi ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki o'smirlik davrida sodir etilgan xato yoki huquqbuzarlik shaxsning butun hayoti davomida "sudlanganlik" maqomi bilan yashashiga sabab bo'lmasligi kerak. Shu sababli jazoni o'tab bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni sudlanmagan deb hisoblash tartibining joriy etilishi uning kelajakda ta'lim olish, mehnat faoliyatini boshlash hamda jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, bunday liberallashtirish siyosati voyaga yetmaganlarni ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilish, ularning huquqiy ongini shakllantirish hamda kelgusida jinoyat sodir etishining oldini olishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur o'zgarishlar voyaga yetmaganlarga nisbatan insonparvarlik yondashuvini kuchaytirish hamda ularning kelajak hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni kamaytirishga qaratilgan. Chunki o'smirlik davrida sodir etilgan xatolar shaxsning butun hayotiga ta'sir ko'rsatmasligi, balki unga yangi imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatga qayta integratsiya qilish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda jazolashdan ko'ra **tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlar** muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan **tarbiya koloniyalari** faoliyat yuritadi. Hozirgi kunda Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan **24-sonli tarbiya koloniyasi** voyaga yetmagan mahkumlarni qayta tarbiyalash hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qilmoqda. Ushbu muassasada umumta'lim maktabi, kasb-hunar o'rganish markazlari, sport hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda **profilaktika** alohida ahamiyatga ega. Huquqiy profilaktika choralari voyaga yetmaganlarda huquqiy ongini shakllantirish, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida tushunchalarni rivojlantirish hamda jamiyatda belgilangan huquqiy me'yorlarga hurmat ruhini singdirishga qaratilgan. Bu jarayon ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jamoatchilikning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi [7]. **Ya'ni**, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish faqat jazo choralarini qo'llash bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning huquqiy bilimlarini oshirish, ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirish hamda to'g'ri hayotiy yo'nalishni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Huquqiy profilaktika jarayonida voyaga yetmaganlarga amaldagi qonun hujjatlarining mazmuni, ularning huquq va majburiyatlari hamda huquqbuzarlik sodir etishning oqibatlarini haqida muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib boriladi.

Bunda ta'lim muassasalari, ota-onalar, mahalla fuqarolar yig'inlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'quvchilar o'rtasida huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ijtimoiy xavf ostida bo'lgan o'smirlar bilan individual ishlash kabi choralar voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda jazolashdan ko'ra profilaktika, tarbiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Zero,

voyaga yetmagan shaxsni to'g'ri yo'lga yo'naltirish nafaqat uning shaxsiy kelajagi, balki jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA: Xulosa o'rnida aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish faqatgina jazo choralari bilan cheklanmasligi kerak. Zero, atoqli adibimiz Tohir Malik "Alvido bolalik" asarida ta'kidlaganidek: "Aslida bolalarni emas, ularning jinoyatchiga aylantirgan kattalarni jazolash kerak". Bu so'zlar zahirida ulkan haqiqat yotadi: hech bir bola dunyoga kelganida jinoyatchi bo'lishni orzu qilmaydi. Ularni egri yo'lga kirib qolishiga ko'pincha atrof-muhitdagi loqaydlik, oiladagi nosog'lom muhit va jamiyatdagi e'tiborsizlik sabab bo'ladi.

Aslida, jamiyat va undagi insonlarning munosabati bolani yo to'g'ri yo'lga soladi, yo uni jinoyatchiga aylantiradi. Shuni anglagan holda, bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasiga va huquqbuzarliklar profilaktikasiga davlat darajasida juda katta e'tibor qaratilmoqda. "Hech bir bola e'tibordan chetda qolmasligi kerak" degan tamoyil asosida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni nafaqat jismonan, balki huquqiy va ma'naviy jihatdan sog'lom voyaga yetkazishni maqsad qilgan. Fikri ojizimcha, bolarani bu qing'r-qishiq yo'ldan to'g'ri yo'lga solish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, yoshlar – nafaqat kelajagimiz, balki bugungi kunimizning ham hal qiluvchi kuchidir. Ularning huquqiy savodxonligini oshirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash orqali biz nafaqat jinoyatchilikning oldini olamiz, balki sog'lom va mustahkam jamiyat poydevorini quramiz. Har bir bola mehr va e'tibor og'ushida voyaga yetsa, u hech qachon egri yo'lni tanlamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.

2. United Nations. Convention on the Rights of the Child. – New York: United Nations, 1989.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar. – Toshkent, 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.

6. “Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni liberallashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2025.

7. Abdurasulova Q.R., Ismailov B.I. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.